

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**O.E.Toshmurodov**

Yosh kurashchilarning harakat ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch-harakat apparati harakatchanligini rivojlantirish metodikasi ..... 107

**J.M.Hamrakulov**

"Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash..... 114

**D.S.Abduqodirov**

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari ..... 117

**R.A.Jo'rayeva, M.A.Hojiyeva**

Bo'lajak filolog-mutaxassislarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish – malakali mutaxassislar tayyorlash omili ..... 120

**G.I.Otaboyeva, Z.G.Mamataliyeva**

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv ..... 123

**O.X.Rashidova**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish..... 126

**Z.D.Rasulova**

Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ..... 131

**Н.Э.Юлдашева**

Эффективные формы и методы развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания ..... 136

**Е.М.Любимова, А.И.Кудряшова, М.К.Ахмадалиева, К.Д.Патидинов**

Обучение цифровым инструментам и ресурсам студентов - бакалавров педагогического образования ..... 139

**Sh.G'.Xasanov**

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli ..... 145

**M.I.Ne'matov**

Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari..... 152

**I.X.Turdiboyev**

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha ayrim mulohazalar ..... 160

---

**IQTISODIYOT****X.X.Бозаров**

Совершенствование научно-методических основ развития малого бизнеса в условиях инновационной экономики ..... 164

---

**FALSAFA****N.S.Badriddinova**

XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar ..... 171

**B.B.Dehqonov**

Bahouddin Naqshbandning inson kamoloti haqidagi qarashlari..... 175

**O.R.Sultonova, S.S.Sadullayev**

Qishloq yoshlarini iqtisodiyot tafakkurini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni va ahamiyati ..... 180

**I.J.Jabborov**

Shayx Najmiddin Kubro ruboilyarida ishq falsafasi ..... 184

**G.N.Navro'zova**

Xoja Ahror Valiy o'zlikni anglash xususida: qiyosiy-falsafiy tahlil ..... 187

**M.E.Xujamov**

Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni..... 191

**F.A.Ibroximov**

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi huquqiy madaniyatining ahamiyati ..... 197



УО'К: 37.015.31.37.7+/25

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOLLABORATIV YONDASHUV ASOSIDA  
PEDAGOGIK INTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI**

**МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАМЕРЕНИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА  
ОСНОВЕ КОЛЛАБОРАТИВНОГО ПОДХОДА**

**MODEL OF DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL INTENTIONS OF FUTURE TEACHERS  
BASED ON A COLLABORATIVE APPROACH**

Xasanov Shoxjaxon G'olibjon o'g'li Farg'ona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

*Annotatsiya*

Ushbu maqolada kollaborativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni o'quv jarayonida kollaborativ yondashuv asosidagi metodikalarning pedagogik intensiyalarga ta'siri hamda modeli xususida ma'lumot berilgan. Oliy ta'lim muassasasida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning mavjud mazmuni va usullarini yangi talablar asosida o'zgartirish, shuningdek, uning mohiyati o'qituvchi hamda talabaning kollaborativ yondashuv asosidagi metodikalarning o'quv jarayonini rivojlanadirishga qaratilgan yondashuvlar muhokama qilinadi. Tadqiqot, shuningdek, dars turlariga alohida e'tibor qaratilgan va turli holatlari yoritib berilgan. Pedagogik intensiyalarning mohiyatini chuqurroq tushunish uchun, o'quv jarayonidagi qo'llaniladigan metodikalar individual ko'rib chiqiladi. Mazkur ta'sir doirasi bo'lg'usi o'qituvchilarga fanlarni o'qitish jarayonini kollaborativ yondashuv usullari asosida tashkil qilishda o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, qiziqishlarini inobatga olish hamda ta'lim tamoyillariga asoslanish ko'nikmalarini shakllantirish o'ta muhimligi haqida so'z boradi.

*Аннотация*

В данной статье представлена информация о влиянии методов, основанных на кооперативном подходе, на педагогические намерения в процессе подготовки будущих учителей, основанных на кооперативном подходе. Обсуждаются изменение существующего содержания и методов подготовки будущих преподавателей в высшем учебном заведении с учетом новых требований, а также подходы, направленные на разработку методов образовательного процесса, основанных на совместном подходе преподавателя и студента. В исследовании такжеделено особое внимание типам уроков и выделены их различные ситуации. Для более глубокого понимания сущности педагогических намерений методы, используемые в образовательном процессе, рассматриваются индивидуально. Спросите у будущих учителей о важности учета познавательных способностей и интересов учащихся, формирования навыков, основанных на образовательных принципах, при организации процесса преподавания предметов на основе методов сотрудничества.

*Abstract*

*This article provides information about the influence of collaborative approach-based methods on pedagogical intentions in the training process of future teachers based on a collaborative approach. Changing the existing content and methods of training future teachers in a higher educational institution based on new requirements, as well as approaches aimed at developing the educational process of methods based on the collaborative approach of the teacher and the student, are discussed. The study also paid special attention to the types of lessons and highlighted their various situations. For a deeper understanding of the essence of pedagogical intentions, the methods used in the educational process are considered individually. Ask future teachers about the importance of taking into account students' cognitive abilities and interests and forming skills based on educational principles when organizing the process of teaching subjects based on collaborative approach methods.*

**Kalit so'zlar:** o'quv jarayoni, kollaboratsiya, pedagogik intensiya, ta'lim samaradorligi, ijodiy fikrlash, ko'nikmalarini o'zlashtirish, shaxsning shakllanishi.

**Ключевые слова:** учебный процесс, сотрудничество, педагогическое намерение, эффективность обучения, творческое мышление, овладение умениями, формирование личности.

**Key words:** educational process, collaboration, pedagogical intention, educational efficiency, creative thinking, mastering skills, personality formation.

## KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish samaradorligi tadqiqotning metodologik asosini tashkil yetuvchi maqsad va vazifalar, yondashuvlar, tamoyillar, mazmun va usullar yordamida belgilanadi. Kollaborativ yondashuv asosidagi o'quv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirishda, birinchi navbatda, uning maqsadi belgilandi. Shu maqsad asosida model ishlab chiqilib amaliyatga tatbiq etiladi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotda modeldan foydalanish algoritmi aniqlandi. Modelda belgilangan maqsadhi amalga oshirishda, shubhasiz, muammoga bo'lgan ilmiy yondashuv asosidagi metodikalarni tavsija qilish muhim ahamiyat kasb yetadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Kollaborativ o'qitishning asosiy g'oyalari keyinchalik Amerikalik olimlar Jorj Aronson (1978), Rodjers va Devid Djonsonlar(1987) Robert Slavin, (1990), hamda Isroiilik olim Shlomo Sharan (1988) tomonidan taklif qilingan va uslubiy jihatdan tavsiflangan. Ularning tadqiqotlari o'quv jarayonini insonparvarlashtirish g'oyalarni targ'ib qilgan.

D.B.Millerning qayd etishicha, hamkorlik vaziyatida umumiy maqsad mavjud bo'lib, guruhlarga taqsimlangan o'quvchilarning hammasiga vazifalar bo'lib beriladi, raqobat vaziyatida guruhning har bir a'zosi yaxlit tarzda qo'yilgan maqsadga individual erishishi talab etiladi. Ta'limga umumiy va shaxsiy muammoli vaziyatlarni hal etishda mavjud vazifalarni o'quv faoliyati qatnashchilarining xususiyatiga qarab taqsimlash, ushbu vaziyatni yechilishni osonlashishiga olib keladi.

Xorijiy tadqiqotlarda hamkorlikda o'qitishning guruhiy shaklining imkoniyatlarini ochib berishga alohida ahamiyat qaratilgan. Jumladan, D.V.Jonson, R.T.Jonsonlar o'quvchilarning individual o'quv-bilish faoliyatini kichik guruhlardagi birgalikda ishlash bilan uyg'unlashtirishni taklif etishgan. D.de Friz (D. DeVries) va K.Edvards (K.Edwards) o'quv-bilish faoliyatidagi o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishning guruhiy shaklini tashkil etishning o'yin usullarini bayon etishgan. Koolaborativ yondashuv asosidagi o'qitish jarayonida o'quvchilar uchuch qulay ta'limga sharoitini yaratish katta samarodorlik beradi.

Amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyui pedagogik intensiyaning ta'limga jarayonidagi ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tgan. Uning pedagogik yondashuvlari va nazariyalari ta'limga amaliylik va o'quvchilarning faol ishtiropini rag'batlantirgan. "Ta'limga hayotga tayyorgarlik emas; ta'limga - bu hayotning o'zi. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'zlarining haqiqiy hayotiy tajribalarini o'zgartiradigan faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini berishni maqsad qilib qo'yishi kerak, shu bilan faol ishtirop etish va bilimlarni amaliy qo'llashga yordam beradi deydi. Dyui ta'limga hayotning ajralmas qismi sifatida ko'rgan va uning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarni jamiyatda faol ishtiropchiga aylantirish deb hisoblagan. Ta'limga faoliyatining samarali tashkil etilishi ta'limga oluvchilarning o'quv jarayonida shakllangan va rivojlangan ko'nikma, malaka va bilimlarini ijtimoiy hayotda qo'llash hamda ulardan samarali foydalanish hozirgi ta'limga tizimimizni asosiy sharti hisoblanadi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli quyidagilardan iborat: maqsad (ayni jarayonning maqsad va vazifalari), pedagogik jarayon (ta'limga oluvchilar o'quv-kasbiy faoliyatining nazariy, metodik va innovatsion jarayonlari), natija bloklari.

Maqsadli blokda asosiy maqsad: kollaborativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning peagogik intensiyalarini rivojlantirishni metodik qo'llab quvvatlash asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Keyingi metodologik blokda tadqiqot doirasidagi vazifalar ya'ni maqsadlarni aniqlash, motivlashtirish, o'quv materialini strukturalashtirish, refleksiya, kollaboratsiya, pedagogik texnologiyadan oqilona foydalanish kabi modelning vazifalari aks ettirilgan. Ushbu vazifalarni ijrosi o'laroq mazkur modelni metodologik blokining 2-qismi ya'ni Fanlar (tadqiqot doirasidagi tanlangan fanlar "Ijtimoiy pedagogika", "Oila pedagogikasi" va "Hamkorlik pedagogikasi"), kollaborativ yondashuv asosidagi metodlar (Axborot almashish; Qiziqarli rollar; Hamkorlikda muammolarni hal qilish; Hamkorlikda o'zaro o'rganish; Liderlikni yuzaga chiqarish; Raqobatni tashkillash. Dual dars; Dialog darsi; Liberalashtirilgan mashg'ulot; Innovatsiyalar mashg'uloti;) Maqsad qilingan intensiyalarini komponentlari (Ta'limi; Tarbiyaviy; Motivatsion; Muloqot; Diagnostik; Innovatsion;


## PEDAGOGIKA

Ijodiy;) va Tavsiya qilingan metodlarni refleksiya qilish (Quyi, o'rta va yuqori)kabi metodologik asoslar belgilangan.

Navbatdagi tashkiliy faoliyat blokida modelning metodologik blokida belgilangan vazifalar va asoslarni birlashtirgan holda pedagogik intensiyalarning yuqori rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi fanlararo integrativ metodikalarni mavzulashtirib uni o'quv jarayoniga tabiq etish ko'rsatib o'tilgan.

Keyingi tahliliy natijaviy blokda esa yuqoridagi tashkiliy faoliyat natijasidagi samaradorlik tahlil qilinib uning natijasi ko'rsatib o'tilgan.

## 2.1-rasm



## Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli

Hozirgi vaqtida ta'lif jarayonida o'qitishning zamонавиy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamонавиy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lif metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shakli chegarasidan chiqib, unga xususiyati, ta'sir doirasasi, tashkillanishi va ta'lif muhitiga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan pedagogika sohasidagi interfaol metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lif beruvchi tomonidan ta'lif oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lif jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lif oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Ta'lif jarayonida o'qituvchi o'zining ish faoliyati davomida o'qitishning u yoki bu metodlaridan foydalanadi. "Metod" so'zi "Nima qilish kerak?", "Qanday qilish kerak?" degan savollarga javob topish bilan belgilanadi. Metod tushunchasining ma'nosida muayyan vazifalarni bajarish, ma'lum maqsadlarga erishishning vositalari, usullari va yo'llari tushuniladi. Bu tushunchalardan kelib chiqib aytish mumkinki, o'qitish metodi o'qituvchi va talabalar, o'qituvchi va o'quvchilar ishining usuli sifatida belgilanadi hamda uning vositasida bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga erishiladi, dunyoqarash shakllanadi va qobiliyatlar rivojlanadi. Bular esa bo'lg'usi o'qituvchining umumkasbiy bilim vako'nikmalari umumtexnik va ixtisoslik fanlaridan o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Amaliy tayyorgarlik sifatida umumkasbiy fanlari o'quv kurslari xizmat qilsa, kasbiy tayyorgarlikni esa ishlab chiqarish amaliyotinio'z ichiga oladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modelida pedagogik intensiyalarga ta'sir ko'rsatuvchi kollaborativ yondashuvga asoslangan mullaflik ta'lif metodikalari tavsija etilgan. Quyida ushbu metodikalarni tavsifi keltirilgan.

**Axborot almashish usuli** – mashg'ulotning mazmun mohiyatini guruhli savol javoblar orqali tashkillangan va shuning asosida mavzuni o'zlashtirishga asoslangan metodika.

**Qiziqarli rollar usuli** – mashg'ulot davomida qiziqarli rollar ijrosini ta'minlash asnosida savollarga javob topish orqali mustaqil fikrlashni o'rgatish metodikasi.

**Hamkorlikda muammolarni hal qilish usuli** – mashg'ulot doirasida ta'lif oluvchilarning bir nechta guruhlarga bo'linib mavzu doirasida o'rganilgan bilimlarni muammoli vaziyatni bartaraf etish orqali amaliyotga qo'llash va shuning asosida mavzuni to'liq anglashga yo'naltirilgan metodika.

**Hamkorlikda o'zaro o'rganish usuli** – mashg'ulot davomida ta'lif oluvchilarning mashg'ulot mazmuni bo'yicha mashg'ulot materialining ayrim kichik bo'laklarini bir-birlariga tushuntirishlarini tashkil etish orqali mavzuni o'zlashtirish metodikasi.

**Liderlikni yuzaga chiqarish usuli** – mashg'ulotni tashkillashda mavzuni ta'lif oluvchilar tomonidan tushuntirib berilishini tashkil etish orqali ta'lif oluvchilar faolligini oshirishga yo'naltirilgan metodika.

**Raqobatni tashkillash usuli** - guruhdag'i ta'lif oluvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo'yicha oldindan tayyorgarlik asosida tashkillangan mashg'ulotini guruhning umumiyl tanlovini, o'zaro raqobatni va g'oliblarni aniqlashga asoslangan metodika darsi.

**Dual usul** – ta'lif oluvchilarning juft bo'lib, mashg'ulot mavzusini birgalikda o'zlashtirishi yoki bir-birining bilimlarini mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lib, Bunda zarur bo'lganda juftliklar mashg'ulot davomida turlicha o'zgartirilishi imkoniyati mavjud bo'lgan metodika.

**Dialogik usul** – ta'lif oluvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'z fikrlarini bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida mashg'ulot mavzusini o'quvchilar bilan dialoglar tashkil etish orqali tushuntirish va mustahkamlash qaratilagan metodika.

**Liberalashtirilgan mashg'ulot** - ta'lif oluvchilarning navbatma-navbat ishtiroki asosida yangi mavzuni o'zlashtirish yoki o'tilgan mashg'ulotni takrorlab, mustahkamlash ga yo'naltirilgan metodika.

## PEDAGOGIKA

**Innovatsiyalar mashg'uloti** - o'quv fani sohasidagi yoki ijtimoiy hayotga tegishli yangiliklarni joriy qilish, shuningdek ta'lif oluvchilarning ijodiy faoliyatlarini natijalarini amalda qo'llash bo'yicha taklif va loyihamar bilan tanishirish mashg'uloti bo'lib, ta'lif oluvchilarning bilimlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan metodlarning barchasini o'qitiladigan bir mutaxassislik fani doirasidagi 1 dars davomiyligi bo'yicha qo'llashimiz, mumkin bo'ladi. Ushbu metodlarda bo'lajak o'qituvchilarga ta'lif berish ularda dars faoliyatini avvalgi bobda keltirilgan pedagogik intensiyalarini rivojlantiradi. Yuqorida keltirilgan metodikalarning asosiy g'oyasi: o'quv jarayonida vazifalarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish va o'rganishdir.

Kollaborativ o'qitish jarayonida bo'lajak mutaxassislarda ta'limi, tarbiyaviy, motivatsion, muloqot, diagnostik, innovatsion va ijodiy intensiyalar ya'ni pedagogik intensiyaga xos xususiyatlar shakllanadi. Pedagogik intensiya nuqtai nazardan qaralganda, mutaxassisiga qo'yiladigan malaka talablarni ana shu xususiyatlar bilan uzviy bog'liq holda qarash mumkin. Pedagogik intensiyalarini shakllanganligi mutaxassisning kasbiy vazifalarni maqbul darajada bajarishga qodirligini bildiradi. O'qituvchi tomonidan yaratilgan metodikani baholash uchun saralanadigan ko'satkichlar ularning xususiyatlari va mohiyatiga qarab tanlab olinadi. Tadqiqot ishida taklif etilgan metodikalarni barchasini jamlab bir butun metodik tizimga birlashtirdik, ya'ni, tadqiqot ishimizda taklif etilgan metodikalarni bo'lajak o'qituvchilarga ta'lif berish jarayoniga joriy etish amaliyotda samarali qo'llash va uning natijasida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intensiyalarini rivojlantirishni metodik qo'llab quvvatlash tadqiqotning asosiy maqsadi hioblanadi.

Tadqiqot jarayonida kollaborativ yondashuv asosida o'qitishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar va o'tkazilgan anketa va so'rovnalar asosida, yuqorida keltirilgan metodikalarning bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intensiyalariga qanday ta'sir ko'rsatishi ya'ni rivojlantirishi o'rjanib chiqildi. Bu o'rjanishlar asosida tadqiqot doirasida tavsiya etilayotgan metodikalarimizning bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intensiyalariga qay darajada ta'sir ko'rsatish haqidagi dinamik jadval yaratildi. O'qitiladigan bir mutaxassislik fani doirasidagi 1 mashg'ulot davomiyligi bo'yicha mashg'ulotning metodik tavsiyalarini bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik intensiyalariga ta'sir ko'rsatish doirasiga nisbatan 3 guruhga bo'lishni tavsiya qildik.

1. Quyi daraja. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik intensiyalariga quyi darajada ta'sir ko'rsatadigan ya'ni ta'sir doirasi darsning uslubiy tashkillanishiga qarab past darajadagi omilga ega metodikalar (•).

2. O'rta daraja. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik intensiyalariga o'rta darajada ta'sir ko'rsatadigan ya'ni ta'sir doirasi darsning uslubiy tashkillanishiga qarab o'rta darajadagi omilga ega metodikalar (••).

3. Yuqori daraja. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik intensiyalariga yuqori darajada ta'sir ko'rsatadigan ya'ni ta'sir doirasi darsning uslubiy tashkillanishiga qarab yuqori darajadagi omilga ega metodikalar (•••).

## 2.2-jadval

## Tavsiya qilingan metodikalarni pedagogik intensiyalarga ta'sir ko'rsatish darajasi

Metodika Intensiya	Ta'limi	Tarbiyaviy	Motivatsion	Muloqot	Diagnostik	Innovatsion	Ijodiy
Axborot almashish	••	••	••	•••	••	•••	•••
Qiziqarli rollar	••	••	•••	••	••	•••	•••
Hamkorlikda muammolarni hal qilish	••	•••	••	•••	•••	••	••

<b>Hamkorlikda o'zaro o'rghanish</b>	•••	•••	••	•••	••	•	•••
<b>Liderlik</b>	••	••	•••	••	••	•••	•••
<b>Raqobat</b>	•••	••	••	•	•••	••	•••
<b>Dual</b>	•••	•••	••	•••	•	••	••
<b>Dialogik</b>	••	•••	••	•••	••	•	•••
<b>Liberal</b>	•••	••	•••	•••	••	••	••
<b>Innovatsiyalar darsi</b>	•••	••	••	••	••	•••	•••

Yuqorida keltirilgan jadval asosida o'quv faoliyatini yo'lga qo'yishda foydalanish mumkin. Ushbu metodik tavsiyalarni joriy etilishida dastlab talabalar hamkorlikdagi bu jarayonga kirishgungacha bo'lgan vaqt davomida noan'anaviy o'qitish uslubida farqli o'laroq qiyinchilikga duch kelsa-da, biroq talabalarda amaliy ko'nikma va malaka hosil bo'lgach, bu vazifa ularning o'quv jarayonidagi ma'lum bir ajralmas qismga aylanib qoladi. Talabalarda ushbu metodikalar asosida pedagogik intensiyalar rivojlanishi talabalarning intellektual salohiyatiga qarab bir qancha vaqt kerak bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar bo'yicha yangilangan o'quv reja asosida fan dasturlarining yangi avlodni ishlab chiqish, o'qitish sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha ijobjiy samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Shularni e'tiborga olgan holda fanlarini hamkorlikda interaktiv faol metodlar asosida o'qitish zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Belgilangan malaka talablari darajasida talabalar tomonidan bilimlarning egallanishida qo'llaniladigan uch toifadagi pedagogik usullar mavjud. Birinchi toifadagi an'anaviy usullar bilimlarni "Yetkazib berish" tamoyiliga asoslanadi. Ikkinci toifadagi noan'anaviy yoki interaktiv usullar "Faollashtirish" tamoyiliga suyanadi. Uchinchi toifadagi ilg'or yoki zamonaviy usullar ta'limg-tarbiya jarayonini jadallashtirish va samaradorligini oshirish tamoyilidan kelib chiqadi.

Mazkur usullar haqida barcha yo'nalish bo'lajak fan o'qituvchilaridan yetarli darajada tushunchaga ega bo'lish, ulardan to'g'ri va o'rinni foydalana olish malakasi talab etiladi.

Chunki talabalarni: bilish jarayoniga qiziqtirishda; ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashda; mustaqil o'qib-o'rghanish va bilimlarini oshirib borishga o'rgatishda; fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda; mantiqiy fikrlashga o'rgatishda; ta'lim samaradorligini oshirish va takomillashtirishda zamonaviy ta'limg texnologiyalari va usullarisiz maqsadga erishib bo'lmaydi.

Shuning uchun zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida quyidagi omillarga asoslanish talab etiladi: ta'limg maqsadlariga erishishni davlat ta'limg standartlari va malaka talablari darajasida kafolatlash; ijodiy va izlanuvchan xarakterdagi masalalarni mustaqil echa olish; o'z sohasidagi yangilardan xabardor bo'lish va o'z ustida mustaqil ishslash; zamonaviy ta'limg va tarbiyaning ilg'or texnologiyalarini, milliy va xorij tajribalarini uzlusiz ravishda egallab borish; fanlararo integrasiyani talab etuvchi yangi murakkab kasbiy-pedagogik muammolarni hal etishga har tomonlama tayyor bo'lish; talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishini yetarli darajada o'rghanish va pedagogik, psixologik hamda fiziologik jihatdan tahlil qila olish; zamonaviy ta'limg tizimida kompleks (majmuaviy) o'zgarishlar qila olish va undagi qarama-qarshiliklarni yenga olish kabilar.

## PEDAGOGIKA

O'qituvchi faoliyatining natijasi – talabalarning egallagan bilim darajasida ko'rindi. Bular: talabalarning bilimlari, hamkorlikda o'qitish faoliyatiga moslashuvchanlik, pedagogik faoliyatni amalga oshirish bo'yicha ko'nikma va malakalar, mustaqil ishni tashkil etish va boshqa jarayonlarda namoyon bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, bo'lajak o'qituvchilarni hamkorlikda o'qitishga tayyorlashda elektron formatdagi resurslar pedagoglar imkoniyatlarini oshiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi, lekin ular pedagog o'rnini bosa olmasligi tabiiy. Ma'lumki, pedagogik tadqiqotlarda ko'proq didaktikaga, ya'ni o'quv materiali mazmunini asoslashga, o'qitishning tashkiliy shakllari va metodlariga qaratiladi. O'qitish jarayoni didaktik tamoyillarga – o'quv materialining izchilligi va tizimliligi, ko'rgazmaliligi, tushunarligi, ilmiyligiga asoslanadi. Pedagogik intensiyalarni rivojlantiriuvchi metodiye majmua ham ham qayd etilgan tamoyillar asosida yaratiladi. Ular an'anaviy tarbiyaviy faoliyatning ketma-ketligi va izchillagini inkor etmaydi, balki uning mazmunini metodik izchillik asosida to'ldiradi.

Kollaborativ o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonini takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltitirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shkllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani ko'rish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarini tashkil qilishda: o'qituvchi-sinf, o'qituvchi kichik guruh. O'qituvchi-katta guruh, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi (juftlikda ishslash), kichik-guruh, guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllar qo'llaniladi. Hamkorlikda o'qitish - bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka o'quvchi hamda butun sinf bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o'quvchilarning ham o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. Ta'lim oluvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishslashadi va o'zlariga hamda o'z guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berishadi.

Yuqorida keltirilgan fikr mlohzazalarni umumlashtirgan holda, tadqiqotni tashkillash maqsadida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intensiyalarini kollaborativ yondashuv asosida rivojlantirishni metodik qo'llab quvvatlash maqsadida o'ziga xos metodlardan foydalanish tavsiya etildi. Bu metodik tavsiyalar kollaborativ xarakterga ega bo'lgan guruhlarda o'qitish metodikasiga tyanilgan.

Bu turdagi metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtiroy etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtiroy etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quydagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim samarası yuqoriqoq bo'lgan o'qish-o'rganish, ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi, ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi, o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi, ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab - quvvatlanishi, amalda bajarish orqali o'rganilishi, ikki taraflama fikr-mlohzazalarga sharoit yaratilishi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. May M.A., Doob L.W. Competition and Cooperation / M.A. May, L.W. Doob. – New York: Social Science Research Council, 1997.
2. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and the use of technology. In J. M. Spector, M. D. Merrill, J. van Merriënboer, & M. Driscoll (Eds.), Handbook of research on educational communications and technology. – New York: Taylor & Francis, 2008. – P. 1017-1044.
3. DeVries, D., Edwards K. Learning games and student teams: Their effects on classroom process / D. DeVries, K. Edwards. – American Educational Research Journal. – 1993. – №10. – P. 307-318
4. Dewey, J. (1897). My Pedagogic Creed. School Journal, 54, 77-80